

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.K.78.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NORMATOV BEKTOSH RAMAZON O'G'LI

**IMMOBILLANGAN REAGENTLAR YORDAMIDA QO'RG'OSHIN VA
VISMUT IONLARINI SORBSION-SPEKTROSKOPIK ANIQLASH
(Qashqadaryo viloyati tabiiy obyektlari misolida)**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on
chemical sciences**

Normatov Bektosh Ramazon o'g'li

Immobilangan reagentlar yordamida qo'rg'oshin va vismut ionlarini sorbsion-spektroskopik aniqlash (Qashqadaryo viloyati tabiiy obyektlari misolida).....3

Норматов Бектош Рамазонович

Сорбционно-спектроскопическое определение ионов свинца и висмута иммобилизованными реагентами (на примере природных объектов Кашкадарьинской области).....21

Normatov Bektosh

Sorption-spectroscopic determination of lead and bismuth ions by immobilized reagents (using natural objects of the Kashkadarya region as an example).....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....44

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.K.78.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NORMATOV BEKTOSH RAMAZON O'G'LI

**IMMOBILLANGAN REAGENTLAR YORDAMIDA QO'RG'OSHIN VA
VISMUT IONLARINI SORBSION-SPEKTROSKOPIK ANIQLASH
(Qashqadaryo viloyati tabiiy obyektlari misolida)**

02.00.02 – Analitik kimyo

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbeki Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiya B2024.2.PhD/K756 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qorshi davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fernu.uz) va "Ziyouci" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyouci.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Simanova Zulayxo Asanaliyevna kimyo fanlari doktori, professor
Rasmiy opponenlar:	Sultonov Marat Mirzayevich kimyo fanlari doktori, professor Umirova Gulnora Abduraxmonovna kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.04.2022.K.78.05 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil « 04 » aprel soat 14⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55 faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@gmail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 284 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz sh, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55 faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@gmail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 18 » 03 kuni tarqatildi.

(2025-yil « 18 » 03 daqi L raqamli reyestr bayonnomasi).




Z.Z. Yaxshiyeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.


Y.A. Geldiyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, k.f.d.


I.E. Abduraxmonov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., dots.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda sanoatning rivojlanishi va transport vositalarining ko'payishi atrof-muhitning og'ir hamda zaharli metall ionlari bilan ifloslanishiga, buning natijasida, insonlar va tirik organizmlarda turli xil og'ir kassalliklar rivojlanishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tabiiy obyektlardagi og'ir va zaharli metallar ionlarining konsentratsiyalarini nazorat qilish talab etiladi. Mavjud usullardan foydalangan holda bu metallar ionlarining juda kam konsentratsiyalarini aniqlashda atrof-muhit obyektlarining tarkib jihatdan murakkabligi, xalaqit beruvchi ionlarning ko'pligi, asbob-uskunalarining qimmatligi va boshqa turli omillar sababli, sezgirligi yuqori, arzon hamda tanlab ta'sir etuvchan tahlil usullarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turli atrof-muhit obyektlari, jumladan, suv va tuproq tarkibidagi og'ir metallarni aniqlash maqsadida ishlatiladigan ma'lum usullarni takomillashtirish bo'yicha keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, atrof-muhitning turli obyektlaridagi qo'rg'oshin va vismut ionlarni aniqlashda tanlovchan organik reagentlardan foydalanish, mavjud spektroskopik usullarni takomillashtirish, kompleks hosil qiluvchi organik reagentlar asosida yangi sorbsion-spektroskopik usullarini ishlab chiqish, atrof-muhit tabiiy obyektlari tarkibidagi zaharli metallar ionlari konsentratsiyalarini aniqlash hamda nazorat qilishda qo'llash, ularning monitoringini olib borish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda kimyo sanoatining yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida muayyan natijalarga erishilmoqda, jumladan mahalliy xom ashyodan oqilona foydalanish va u asosida xorijdan keltiriladigan mahsulotlar o'rnini bosa oladigan yangi sorbentlarini olish borasida ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yurtimizda, innavatsion texnologiyalarni tadbiiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilushning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillardagi «taraqqiyot strategiyasida»¹ iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash asosida, yuqori qo'shilgan qimmatli tayyor mahsulot turlarini ko'paytirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini o'zlashtirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan. Bu borada, jumladan, atrof-muhit obyektlaridagi turli og'ir, zaharli metall ionlarini aniqlash uchun organik reagentlarni immobillash orqali yangi sorbsion-spektroskopik usullarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli «2030-yigacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» va 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora tadbirlari

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

to'g'risida»gi Qarorlar hamda maskur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan daraja xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo va kimyoviy texnologiyaning nazariy asoslari, nanotexnologiyalar XII. Organik, noorganik, polimer va boshqa tabiiy materiallarni olishning yangi texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoda ko'plab olimlar tomonidan qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarini optik va boshqa usullari bilan xususan, optik, elektrokimyoviy va xromatografik aniqlash usullari mavjud, bu usullar bilan olingan natijalar ko'p ionlarning xalaqit berishi, ayrim usullarning aniqligi va sezgirligini yuqori emasligi, analizda sarf xarajatlarining ko'pligi, qimmatligi kuzatilgan. Qo'rg'oshin va vismut ionlarini optik usullar bilan shulardan, fotometrik va spektrofotometrik aniqlash usullari ko'p. Bu usullar bilan olingan natijalarida ko'p ionlarni xalaqit berishi, aniqligi va sezgirligining pastligi kuzatildi.

Sanoatda og'ir metallarni monitoringida kimyoviy toza moddalardan foydalanishga sezgir va tanlab ta'sir etuvchanligi yuqori bo'lgan usullarga bo'lgan talab oshib dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Juda ko'p olimlar ushbu masalani yechimi sifatida immobillangan organik reagentlardan foydalanishni taklif qilgan. Qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarini immobillangan organik reagentlar bilan kompleks hosil bo'lishi reaksiyasi mexanizmi kam o'rganilgan va ilmiy va texnik adabiyotlarda ushbu mavzu bo'yicha ma'lumotlar kam. Shuning uchun og'ir metallarni monitoringini o'tkazishda yangi, zamon talablariga javob beradigan usullarni ishlab chiqish va qo'llash zarur.

Immobillangan organik reagentlardan foydalanishga asoslangan, yangi yondashishlardan biri bo'lgan qattiq fazali-spektroskopik usullar sezgirlik va ishonchlilikka qo'yiladigan talablarga javob beradi. Bu yo'nalishda juda ko'p olimlar (Yu.A.Zolotov, G.D.Brikina, N.A.Gavrilenko, V.N.Losev, V.G.Amelin, YE.I.Morosanova, C.G.Dmitriyenko va boshqalar) tomonidan tashuvchi qatlam sifatida turli silikagellar, sorbentlar tabiiy seolitlar, PE plyonkalar, sellyuloza nitrati, polikaproamidli gel membranalar modifikatsiyalangan kremnezemlardan va boshqalarda foydalanadigan spektroskopik va fluoressent usullar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda elementlarni aniqlashda kimyoviy sensor va test-usullarini ishlab chiqish bilan A.M.Gevorgyan, M.A.Nasimov, E.Abduraxmanov, R.X.Djiyanbayeva, B.D.Kabulov, I.P.Shesterova, Z.A.Smanovalar shug'ullanishgan. Boshqa usullardan farqliroq qattiq fazali spektroskopiyada zaharli erituvchilar talab etilmaydi va shuning uchun analizning ekologik xavfsizligini ta'minlaydi. Qo'rg'oshin va vismut ionlarini aniqlashning zamonaviy va takomillashgan usullarini ishlab chiqish, hozirgi zamon talablariga javob beradigan ekspress usullarni yaratish kabi oldiga qo'yilgan vazifalar hozirgi kunda juda muhim va dolzarb.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti va Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari

rejasining F-22.7 «Selektiv organik reagentlar sintezi» (2012-2016 yy), A-12.53 «Atrof muhit ob'ektlarida ekotok-sikantlarni fotometrik va sorbsion-fotometrik aniqlash usullarini ishlab chiqishda polimer tashuvchilarga immobillangan reagentlar» (2015-2017 yy) mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi immobillangan organik reagentlar (arsenazo III, ksilenol zarg'aldog'i) yordamida qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarini aniqlashning arzon, tezkor, tanlab ta'sir etuvchan hamda sezgir sorbsion-spektroskopik usulini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlariga sezgir hamda tanlab ta'sir etuvchan organik reagentlarni tanlash, tanlab olingan reagentlarni immobillash uchun tashuvchi sorbent tanlash;

analitik xususiyatlari saqlangan holda organik reagentlarni polimer tashuvchi tolaga immobillashning maqbul sharoitlarini tanlash;

qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarining immobillangan organik reagentlar bilan rangli kompleks hosil qilishining maqbul sharoitlarini aniqlash;

qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarining immobillangan organik reagentlar bilan hosil qilgan kompleks birikmalari tarkibini aniqlash;

qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarining konsentratsiyalarini aniqlashda Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi, aniqlashning quyi chegarasi va halaqit beruvchi ionlarning ta'sirini aniqlash;

ishlab chiqilgan usulni turli xil tabiatli, binar, uchlamchi va yanada murakkab model aralashmalar, tabiiy va chiqindi suvlarning standart namunalari tahlillarida qo'llash;

Tadqiqotning obyekti sifatida atrof-muhit obyektlari, tabiiy va chiqindi suvlarning standart namunalari olingan.

Tadqiqotning predmetini turli atrof-muhit obyektlari tabiiy va chiqindi suvlari tarkibidan ifloslantiruvchi ekotoksikant hisoblangan og'ir va zaharli metallar qo'rg'oshin va vismut ionlari, ularning birikmalari ташкил этган.

Tadqiqotning usullari. Optik (sorbsion-spektrofotometrik, nur qaytarish spektroskopiya usuli, atom-absorbsion); elektrokimyoviy va statistik hisoblash usullari, element analizlari, IQ va Roman-spektrometrik, Rentgen-flyuoresent, SEM va kvant-kimyoviy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

SMA-1, PPA-1, PPM-1 tolali tashuvchilarga organik reagentlar: arsenazo III va ksilenol zarg'aldog'ini immobillash analitik faol guruhlar hisobiga sodir bo'lishi hamda konsentrlash hisobiga sezuvchanlikning 100 marta oshishi isbotlangan;

maqbul tashuvchi sifatida PPM-1 tola tanlab olingan, immobillash va kompleks hosil qilishining maqbul sharoitlari aniqlangan;

immobillangan arsenazo III ni Pb (II) ionlari bilan ksilenol zarg'aldog'ini vismut (III) bilan kompleks hosil qilish reaksiyasida kompleksning spektroskopik tavsiflari (haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsiyenti va kompleksning barqarorlik doimiyligi) aniqlangan;

qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarini yangi immobillangan arsenazo III va ksilenol zarg'aldog'i bilan aniqlashning sorbsion-spektroskopik usuli ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul yordamida qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarini aniqlashning Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi Pb (II) ionlari uchun 6-49 mkg/25 ml, Bi (III) ionlari uchun 3-42 mkg/25 ml oralig'ida bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Immobillangan organik reagentlar yordamida qo'rg'oshin va vismut ionlarini aniqlashga asoslangan arzon, ekspress, selektiv va sezgir sorbsion-spektroskopik usuli ishlab chiqilgan.

Immobillangan organik reagentlar bilan atrof-muhit obyektlarida qo'rg'oshin va vismut ionlarini mikro miqdorini aniqlashning metrologik va analitik tavsiflari yaxshilangan usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi umumqabul qilingan mezonlar asosida o'tkazilgan, spektrofotometriya, IQ, Roman-spektroskopiyasi, rentgeno-fluoretsent va SEM tahlil usullari bilan isbotlangan va solishtirilgan. Olingan natijalar "kiritildi-topildi", "qo'shimchalar qo'shish" hamda standart namunalari bilan taqqoslash usullari bilan tekshirilgan va natijalar matematik-statistik hisoblashlar olib borilgani, atrof-muhit obyektlarini ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usul bilan tahlili boshqa mustaqil usullar bilan solishtirilgani bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotda natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, polimer tolali tashuvchiga organik reagentlar arsenazo III va ksilenol zarg'aldog'ini immobillashning maqbul sharoitlari topilgan va ularni qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlariga tanlab ta'sir etuvchanligini oshirilganligi, analitik faol guruhlarni reagentlar molekulasiga kiritish asosida analitik va metrologik parametrlari yaxshilanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan sorbsion-spektroskopik usuli yordamida qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarini aniqlash uchun atrof-muhit obyektlari bo'lgan Qashqadaryo viloyatidagi kanallar suvlari va sanoat chiqindi suvlaridan aniqlash kabi ekokimyo muammolarini yechishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat oqava suvlarini tarkibidan qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarining miqdorlarini aniqlash va tozalash bo'yicha yangi sorbsion-spektroskopik usulini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarini immobillangan organik reagentlar yordamida sorbsion-spektroskopik aniqlash usuli Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanidagi Shurtan neft gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli konlar chiqindi suvlari tarkibidagi og'ir metall ionlarini aniqlash uchun joriy qilingan (Shurtan neft gaz qazib chiqarish boshqarmasining 2024 yil 6 iyundagi 20-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, suv tarkibida og'ir metall ionlarini aniqlash uchun immobillangan organik reagentlardan foydalanish imkonini bergan;

qo'rg'oshin (II) va vismut (III) ionlarini aniqlash va ajratib olish usuli Muborak

gazni qayta ishlash zavodida chiqindi suvlarini og‘ir metall ionlarini nazorat qilish va tozalash jarayonida joriy qilingan (Muborak gazni qayta ishlash zavodining 2024 yil 28 sentyabrdagi 02-02/ЭH-6415-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, chiqindi suvlarini tarkibidan og‘ir metall ionlarini aniqlash va samarali tozalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorli (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarida 4 ta, jumladan 3 ta maqola respublikada va 1 ta ilmiy maqola xalqaro (Scopus) jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqotning obyekt va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, erishilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati aniqlangan, tadqiqot natijalarini joriy qilish ro‘yxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qo‘rg‘oshin va vismut birikmalarining aniqlashni analitik usullari. (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida og‘ir metallar va ularning tirik organizmlarga ta’siri, qo‘rg‘oshin va uning birikmalarining analitik aniqlash usullari, vismut va uning birikmalarini analitik aniqlash usullari, qo‘rg‘oshin (II) ioning optik aniqlash usullari, vismut (III) ionini aniqlashning optik usullari, qo‘rg‘oshin va vismut ionlarini fizik – kimyoviy usullarda aniqlashda selektiv organik reagentlarning ahamiyati va immobillashda ishlatiladigan ba’zi tashuvchilarning tavsiflari haqida ma’lumotlar keltirilgan. O‘rganilgan adabiyotlardagi ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, og‘ir va zaharli metallar bo‘lgan qo‘rg‘oshin va vismut ionlari atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Qo‘rg‘oshin va vismut ionlarini sorbentlar asosida organik reagentlarni immobillash, ushbu metall ionlari bilan o‘zaro ta’sir mexanizmlari, shu jumladan organik reagentlar bilan tolasimon sorbentlarning o‘zaro ta’sirini murakkabligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Adabiyotlar tahlilida hozirgacha qo‘llanilib kelinayotga organik reagentlarni ahamiyati va xossalari analitik nuqtai nazardan kam o‘rganilgan. Vismut (III) ionini aniqlashni elektrokimyoviy, ekstraksiya, optik va boshqa fizik- kimyoviy usullari mavjud. Lekin qattiq tolali polimer sorbentlarga organik reagentlarni immobillab sorbsion-spektroskopik usul yordamida aniqlashga doir ilmiy tadqiqotlar kam o‘rganilgan.

Dissertatsiyaning “**Qo‘rg‘oshin (II) va vismut (III) ionlarini aniqlashda ishlatiladigan uskunalar, reaktivlar hamda eritmalarini tayyorlash usullari**” nomli ikkinchi bobida, tadqiqot davomida ishlatilgan asbob-uskunalar, jihozlar, reaktivlar, qo‘rg‘oshin (II) va vismut (III) ionlarining hamda organik reagentlarning standart va ishchi eritmalarini tayyorlash usullari, tadqiqotda foydalanilgan bufer eritmalarini tayyorlash usullari keltirilgan hamda tadqiqotda foydalanilgan arsenazo III va ksilenol zarg‘aldog‘i organik reagentlarning xususiyatlari va tolali tashuvchilar xususiyatlari keltirilgan. Tadqiqotda qo‘llanilgan arsenazo III va ksilenol zarg‘aldog‘i organik reagentlarining struktura formulalari 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

Organik reagentlarning tuzilish formulalari


Organik reagent nomi	Arsenazo III (2,2'-(1,8-digidroksi-3,6-disulfonaftilen-2,7-bisazo) bisbenzolarsen kislota, 2,7-Bis(2-arsenofenilazo)xromotrop kislotasi)
Brutto formulasi, g/mol	$(\text{HO})_2\text{C}_{10}\text{H}_2(\text{SO}_3\text{H})_2(\text{N}=\text{NC}_6\text{H}_4\text{AsO}_3\text{H}_2)_2$ 776,37 g/mol
Stuktur formulasi	
Organik reagent nomi	Ksilenol zarg‘aldog‘ (2,2',2'',2'''-{(1,1-dioksido-3H-2,1-benzoksatiol-3,3-diil) bis [(6-gidroksi-5-metil benzol-3,1-diil) metandil nitrilo]}tetra sirka kislota)
Brutto formulasi, g/mol	$(\text{C}_{31}\text{H}_{32}\text{N}_2\text{O}_{13}\text{S})$ 672.66 g/mol
Stuktur formulasi	

Dissertatsiyaning «**Arsenazo III va ksilenol zarg‘aldog‘i reagentlarini tashuvchiga immobillash va kompleks hosil qilishning maqbul sharoitlarini tanlash**» nomli uchinchi bobida organik reagentlarni immobillashda sorbsion sig‘imi yuqori bo‘lgan PPM-1 tolali tashuvchi tanlab olindi va arsenazo III, ksilenol zarg‘aldog‘i reagentlarini immobillanishning maqbul sharoitlari o‘rganildi. Qo‘rg‘oshin (II) va vismut (III) ionlarini immobillangan reagentlar bilan komplekslari olindi hamda optimal sharoitlari o‘rganildi. Kompleks hosil qilish xususiyatlari nur qaytarish va nur yutish spektrofotometriya usullarida tahlil qilindi.

Kompleks hosil bo'lishi va uning mexanizmi kvant-kimyoviy hisoblashlar, Roman va IQ-spektrometriya usullari yordamida o'rganildi. Shuningdek kompleks hosil bo'lganligini va tarkibini o'rganish maqsadida dastlabki hamda hosil bo'lgan maxsulotlar rentgen-fluorescent, SEM spektrometrik, izomalyar serialar usullarida tahlil qilindi va tarkib ikkala kompleks tarkibi Me:R o'zaro 1:1 ekanligi aniqlandi. Hosil bo'lgan komplekslar zaryadi o'rganilganda Pb (II) ion bilan arsenazo III ning kompleks zaryadi musbat, Bi (III) ion bilan ksilenol zarg'aldog'i hosil qilgan kompleks esa manfiy zaryadga ega ekanligi aniqlandi. Immobillangan arsenazo III yordamida Pb (II) ionni aniqlashning quyi chegarasi 0,24 mkg/ml, Bi (III) ionni immobilangan ksilenol zarg'aldog'i bilan aniqlashda esa 0,12 mkg/ml ekanligi aniqlandi.



1-rasm. Arsenazo III ($\lambda_p=540$ nm) va uning eritmadagi qo'rg'oshin (II) ion bilan kompleksi ($\lambda_k=610$) yutilish spektrlari




2-rasm. Ksilenol zarg'aldog'i ($\lambda_p=400$ nm) va uning eritmadagi vismut (III) ion bilan kompleksi ($\lambda_k=530$) yutilish spektrlari

1-rasmdan ko'rinib turibdiki keltirilgan yutilish spektrlari bo'yicha arsenazo III qo'rg'oshin (II) ion bilan hosil qilgan kompleksning maksimal nur yutilish sohasi 610 nm da arsenazo III esa 540 nm da kuzatildi. Reagent va hosil bo'lgan kompleks orasida bataxrom siljish kuzatilgan va orasidagi kontraslik 70 nm ga tengdir.


2-rasmdan ko'rinib turibdiki keltirilgan yutilish spektrlari bo'yicha ksilenol zarg'aldog'i vismut (III) ion bilan hosil qilgan kompleksning maksimal nur yutilish sohasi 530 nm da ksilenol zarg'aldog'iniki esa, 400 nm da kuzatildi. Reagent va hosil bo'lgan kompleks orasida bataxrom siljish kuzatilgan va orasidagi kontraslik 130 nm ga tengdir.

Immobillangan arsenazo III va ksilenol zarg'aldog'i reagentlarinig Pb (II) ion bilan va Bi (III) ion bilan hosil qilgan kompleks birikmalarining Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi va korrelyatsiya koeffitsiyenti topildi. Natijalar 3-4 rasmlarda keltirilgan. Pb(II) va Bi (III) ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopil usuli yuqori aniqlikka ega ekanligi isbotlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunish sohalari Pb²⁺ ion uchun 6-49 mkg/25 ml oralig'ida va Bi³⁺ ion uchun 3 mkg dan 42 mkg/25 ml oralig'ida kuzatildi, bundan yuqori konsentratsiyada to'g'ri chiziqdan chetlanish yuzaga keladi.




3-rasm Immobillangan arsenazo III bilan Pb (II) hosil qilgan kompleksning Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi va korrelyatsiya koeffitsiyenti grafigi.




4-rasm Immobillangan ksilenol zarg'aldog'i bilan Bi (III) hosil qilgan kompleksining Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi va korrelyatsiya koeffitsiyenti grafigi.

Sorbsiyalash uchun tashuvchi tanlash tadqiqotni asosiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. Chunki tashuvchiga organik reagentlarni hammasi ham yetarlicha immobillanmaydi. Buning uchun muqobil sharoit reagentning tuzilishi va immobillash uslubini to'g'ri bajarish lozim. Tadqiqot davomida asosan SMA-1, PPA-1 va PPM-1 polimer tolali tashuvchilarni organik reagentlar arsenazo-III va ksilenol zarg'aldog'i bilan immobillash sharoitlarini o'rganildi. Olingan natijalar 5-6 rasmlar va 2-jadvalda keltirilgan.



5-rasm. Turli xil sorbentlarga (SMA-1; PPA-1; PPM-1) arsenazo III ga immobillanishining oldin va keyingi nur qaytarish spektrlari.



6-rasm Turli xil sorbentlarga (SMA-1; PPA-1; PPM-1) ksilenol zarg'aldog'i immobillash ning oldin va keyingi nur qaytarish spektrlari.

Olingan spektrlardan xulosa qilish mumkinki, arsenazo III va ksilenol zarg'aldog'i reagentlarinig PPM-1 sorbentga immobillanishidan olingan nur qaytarishning maksimumlari F(R) nisbatdan yuqori. Tadqiqotlarni olib borishda tashuvchi sorbent sifatida PPM-1 tanlab olindi va keyingi ishlarda tanlab olingan


tashuvchi sorbentdan foydalanildi.

2-jadval


Reagentning optik zichligini tashuvchining tabiatiga bog‘liqligi

No	Tashuvchi turi	F(R) arsenazo-III	F(R) ksilenol zarg‘aldog‘i
1	SMA-1	5,33	8,82
2	PPA-1	7,11	13,97
3	PPM-1	15,83	16,76

Pb(II) ionini immobillangan arsenazo III organik reagenti bilan hamda Bi(III) ionini immobillangan ksilenol zarg‘aldog‘i bilan hosil qilgan kompleksining nur qaytarish spektrlari o‘rganildi. (7-8-rasm)



7-rasm PPM-1 sorbentiga immobillangan Arsenazo III reagentining Pb (II) ioni bilan hosil qilgan kompleksning nur qaytarish spektrlari.



8-rasm PPM-1 sorbentiga immobillangan ksilenol zarg‘aldog‘i reagentinig Bi(III) ioni bilan hosil qilgan kompleksning nur qaytarish spektrlari.

Nur qaytarish spektrlari tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, 7-rasm immobillangan arsenazo III reagenti 540 nm sohada, immobillangan arsenazo III ning Pb(II) ioni bilan hosil qilgan kompleksi esa 650 nm sohada analitik signal qayd etilib, reaksiya kontrastligi 110 nmga teng. Bu esa reaksiyaning kontrastligi yuqori ekanligi va sezgirligidan dalolat beradi.

8-rasmdan ko‘rinadiki, PPM-1 sorbentiga immobillangan ksilenol zarg‘aldog‘i reagentinig nur qaytarish sohasi 400 nm sohada qayt etgan bo‘lsa, immobillangan ksilenol zarg‘aldog‘ining Bi(III) ioni bilan hosil qilgan kompleks birikmasining nur qaytarish sohasi 550 nm sohada qayt etgan. Reaksiya kontrastligi 150 nmga teng. Bu esa reaksiyaning kontrastligi yuqori ekanligi va sezgirligidan dalolat beradi.

Pb(II) ioni arsenazo III organik reagenti bilan va Bi(III) ioni ksilenol zarg‘aldog‘i reagent bilan hosil qilgan komplekslarining spektral tavsiflari maqbul sharoitlarda aniqlandi, natijalar 3-4-jadvalda keltirildi.

3-jadval

Qo'rg'oshin (II) ionini arsenazo III reagenti bilan hosil qilgan kompleksining spektral tasnifi ($\ell = 1,0$ sm, $C_{Pb^{2+}} = 60$ mkg)


Kompleks rangi, faza	pH	λ , HR nm	λ , MeR nm	$\Delta\lambda$	$C_{Pb^{2+}}$ mkg/ml	ϵ_k , 10^4	Sendel bo'yicha sezgirlik, mkg/sm ²
Binafsha, eritma	5-6	540	610	70	60	2,2	0,0212
Binafsha, qattiq	5-6	540	650	110	60	5.3	0.0024

4-jadval


Vismut (III) ionini ksilenol zarg'aldog'i bilan hosil qilgan kompleksining spektral tasnifi ($\ell = 1,0$; $C_{Bi^{3+}} = 20$ mkg/)

Kompleks rangi, faza	pH	λ , HR nm	λ , MeR nm	$\Delta\lambda$	$C_{Bi^{3+}}$ mkg/ml	ϵ_k , 10^4	Sendel bo'yicha sezgirlik, mkg/sm ²
Qizil, eritma	2,25-2,5	400	530	130	20	1,43	0,012
Qizil, qattiq	2,25-2,5	400	550	150	20	1,56	0.001

Jadvallardan ko'rinib turibdiki, Pb(II) ionini arsenazo III reagenti bilan kompleks hosil qilish reaksiyasi katta kontrastlikka ($\Delta\lambda=110$ nm) va yaxshi sezgirlikka ($S.b.s = 0,0212$ mkg/sm²) ega hamda Bi(III) ionini ksilenol zarg'aldog'i bilan kontrastlikka ($\Delta\lambda=150$ nm) teng sezgirlikka eritmaga nisbatan ikki baravar oshgan aniqlash uchun sezgir analitik reagent sifatida qo'llash imkoniyatini bildiradi.



9-rasm Pb^{2+} (II) ni tolaga immobilangan arsenazo III bilan hosil qilgan kompleksining tarkibini izomolyar seriyalar usulida aniqlashni nur qaytarish spektri.




10-rasm Bi^{3+} (III) ni tolaga immobilangan ksilenol zarg'aldog'i bilan hosil qilgan kompleksining tarkibini izomolyar seriyalar usulida aniqlashni nur qaytarish spektri.


Immobilangan arsenazo III reagentining bilan Pb (II) ionini va immobilangan ksilenol zarg'aldog'i reagentining Bi (III) ionini bilan hosil qilgan komplekslarining tarkibi izomolyar seriyalar usulida topildi. (9-10-rasm) va qattiq fazada ularning nisbati 1:1 ligi aniqlandi.

PPM-1 sorbentiga immobilangan ksilenol zarg'aldog'ining immobilanishi


mexanizmlari IQ-spektrometriya usulida o'rganildi. Tadqiqot davomida foydalanilgan polimer tashuvchi sifatida O'zMU Kimyo fakultetining polimer kimyosi kafedrasida tomonidan sintez qilib olingan tolasimon tashuvchilar ishlatildi. Kimyoviy barqaror va katta sorbsion sig'imga ega PPM-1 tolasi tashuvchi sifatida ishlatilgan, immobillangan arsenazo III va Pb^{2+} ioni bilan hosil bo'lgan kompleks hamda immobillangan ksilenol zarg'aldog'i va Bi (III) ioni bilan hosil bo'lgan kompleksning IQ-spektrlari olindi (11-14-rasm).




11-rasm PPM-1 tashuvchi tolaga immobillangan arsenazo III IQ-spektri



12-rasm immobillangan arsenazo III ni $Pb(II)$ ioni bilan hosil qilgan kompleksining IQ-spektri



13-rasm PPM-1 tashuvchi tolaga immobillangan ksilenol zarg'aldog'ining IQ-spektri.



14-rasm immobillangan ksilenol zarg'aldog'ining Bi (III) ioni bilan hosil qilgan kompleksining IQ-spektri.

Immobillangan arsenazo III ning infra qizil spektri tahlilida 3369 cm^{-1} sohada O-H bog'ining, 1620 cm^{-1} sohada $-N=N-$ bog'ining $1413-1478\text{ cm}^{-1}$ sohada SO_3 bog'ining $1169-1297\text{ cm}^{-1}$ sohada C-OH bog'ining $423-626\text{ cm}^{-1}$ sohada As-O bog'ining tebranishida hosil bo'lgan yutilish cho'qqilarini kuzatish mumkin.


Immobillangan arsenazo III ni Pb^{2+} ioni bilan hosil qilgan kompleks birikmasining infra qizil spektri tahlili (12-rasm) shuni ko'rsatdiki $499-667\text{ cm}^{-1}$ sohalar oralig'i Pb-O (Me-O) bog'ining, immobillangan arsenazo III IQ spektriga nisbatan solishtirilganda 600 cm^{-1} sohada to'rtlamchi aminga xos yangi yutilish cho'qqisini hosil bo'lganligini kuzatish mumkin. Qolgan belgilangan sohalar arsenazo III spektridagi sohalarni takrorlaydi.

13-rasmda immobillangan ksilenol zarg'aldog'ini IQ-spektri tahlili bo'yicha


3882-3364 cm^{-1} sohada -OH bog‘ining, 1620 cm^{-1} sohada -C=O bog‘ining, 1453 cm^{-1} sohada S=O bog‘ining 445 cm^{-1} sohada Ar-S bog‘ining tebranishini kuzatish mumkin.

Kompleksni IQ-spektri tahlili bo‘yicha (14-rasm) 3320 cm^{-1} sohada intensivligi past va keng cho‘qqili -OH guruhiga tegishli yutilish cho‘qqini ko‘rish mumkin. 487-669 cm^{-1} sohalar oraliqlari Me-O, Me-N bog‘lariga tegishli yutilish chiziqlarini kuzatish mumkin.

PPM-1 sorbentidagi immobillangan arsenazo III ning Pb^{2+} ioni bilan hosil qilagan kompleksi va immobillangan ksilenol zarg‘aldog‘ini Bi^{3+} bilan hosil qilagan kompleksini rentgen-fluoussent spektri tahlil qilinganda kompleksning rentgen-fluoussent spektrida qo‘rg‘oshin ionlarining eng yuqori xarakteristikasi cho‘qqi paydo bo‘lganini ko‘rish mumkin, vismut uchun esa kompleksda immobillangan reagent ksilenol zarg‘aldog‘i bilan solishtirganda, vismut (III) ionlarining eng yuqori xarakteristik cho‘qqisi paydo bo‘lganini ko‘rish mumkin. Bu esa immobillangan reagentning metall ionlari bilan o‘zaro ta‘sirini ko‘rsatadi (15,16-rasm).




15-rasm Qo‘rg‘oshin (II) ionlarini immobillangan arsenazo III reagent bilan kompleks birikmasining rentgen-fluoussent spektri.




16-rasm Immobillangan ksilenol zarg‘aldog‘i reagentining Bi^{3+} ioni bilan kompleks birikmasining rentgen-fluoussent spektri.

Morfologik tadqiqotlar va tolalarning elementar tarkibi "VO-MA 15" (Zeiss, Germaniya) skanerlash elektron mikroskopi yordamida amalga oshirildi. Elementlarning tarkibi haqida ma‘lumot olishda tanlangan joylashuvi bo‘lgan

elektron fotosuratlar, kompozitsiyalar jadvali va tola namunalarning grafik spektri, immobillangan arsenazo III va uning qo‘rg‘oshin (II) ion bilan kompleksi hamda immobillangan ksilenol zarg‘aldog‘i va uning vismut (III) ion bilan kompleksi taqdim etildi. Skanerlovchi elektron mikroskopiyasi tahlili natijalari 17,18-rasmlarda keltirib o‘tilgan.



17-rasm PPM-1 tolasiga immobillangan arsenazo III bilan Pb (II) ionidan hosil bo‘lgan kompleksning SEM spektri



18-rasm Immobillangan ksilenol zarg‘aldog‘i reagentining Bi (III) ion bilan kompleksining SEM spektri

17-rasmdan ko‘rinadiki, PPM-1 tolasiga immobillangan arsenazo III bilan Pb (II) ionidan hosil bo‘lgan kompleksning skanerlovchi elektron mikroskopiyasi spektrida Pb (II) ioniga tegishli intensiv cho‘qqini ko‘rish mumkin.

18-rasmdan ham ko‘rinadiki, Immobillangan ksilenol zarg‘aldog‘i reagentining Bi (III) ion bilan kompleksining skanerlovchi elektron mikroskopiyasi spektrida Bi (III) ioniga tegishli intensiv cho‘qqini ko‘rish mumkin. SEM spektri natijalaridan xulosa qilinadiki, immobillangan organik reagentlar bilan metall ionlari o‘zaro tasirlashib birikma hosil qilgan.

Dissertatsiyaning **“Pb (II) va Bi (III) ionlarini aniqlashda yondosh ionlar tasirini o‘rganish va ishlab chiqilgan usulni sun‘iy hamda tabiiy obyektlar tahliliga qo‘llash” deb nomlangan** to‘rtinchi bobida Pb(II) va Bi(III) ionlarini aniqlashda yondosh ionlar tasiri, Pb(II) va Bi(III) ionlarini aniqlashning ishlab chiqilgan sorbsion-spektrofotometrik usulini murakkab model aralashmalar analiziga qo‘llanilishi, turli tabiiy suvlardan Pb(II) va Bi(III) ionlarini ishlab chiqilgan sorbsion-spektrofotometrik usulda aniqlash hamda Pb(II) va Bi(III) ionlarini aniqlashning sorbsion-spektrofotometrik usulini raqobatbardoshligini baholash haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Pb (II) va Bi(III) ionlarini aniqlashda tabiiy obyektlar tarkibida birga va yondosh holatda uchraydigan metall ionlarini tasiri o‘rganildi. Bunda metall ionlarini miqdori qo‘rg‘oshin va vismut ionlariga nisbatan turli nisbatta olinib, sorbsion–spektrofotometrik usulda tahlil qilindi (5,6-jadvallar). Pb (II) va Bi (III) ionlarini aniqlashning sorbsion-spektrofotometrik usulini aralashmalar analizida qo‘llash mumkin.

5-jadval

Pb (II) ionini sorbsion-spektrofotometrik aniqlashda halaqit beruvchi ionlar ta'siri (pH=5,5; P=0,95)

[Pb] : [X]	Topildi Pb, mkg ($\bar{x} \pm \Delta X$)	n	S	S _r
Pb : Cu 1:100	1,02±0,09	5	0,08	0,078
Pb : Cd 1:100	0,981±0,074	4	0,06	0,066
Pb : Zn 1:80	1,01±0,08	4	0,07	0,069
1:100	1,12±0,11	5	0,10	0,085
Pb : Cr 1:10	0,991±0,095	5	0,08	0,083
1:25	0,972±0,102	4	0,09	0,091
1:50	0,66±0,085	5	0,07	0,112
Pb : Mn 1:100	1,00±0,15	5	0,13	0,131
Pb : Fe 1:100	0,983±0,214	4	0,186	0,189

6-jadval

Bi³⁺ ni aniqlashda yondosh kationlarning ta'sirini o'rganish natijalari (C=1,0 mkg; X-yondosh bo'lgan metall, P = 95)

[Bi] : [X]	Topilgan Bi, mkg ($\bar{x} \pm \Delta X$)	n	S	S _r
Bi : Cu 1:50	1,05±0,11	4	0,081	0,077
Bi : Fe 1:20	1,04±0,12	5	0,104	0,101
Bi : Pb 1:20	1,00±0,03	5	0,027	0,027
1:100	1,01±0,03		0,030	0,030
Bi : Zn 1:10	0,98±0,03	5	0,027	0,027
1:20	1,00±0,04		0,032	0,032
Bi : Al 1:10	1,00±0,03	5	0,029	0,029
1:20	1,01±0,03			
Bi : Ag 1:10	0,99±0,04	4	0,031	0,031
1:100	1,02±0,04		0,028	0,028

Ishlab chiqilayotgan usulni real obyektlar analiziga qo'llash uchun dastlab tabiiy obyekt tarkibiga yaqin bo'lgan murakkab model aralashma tayyorlab olindi va shu eritmalar tarkibidagi Pb (II) va Bi (III) ionlarini sorbsion-spektrofotometrik aniqlash usuli hamda sharoitlari individual eritmalarda aniqlash kabi olib borildi. Tahlil natijalari 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Sun'iy aralashmalar tarkibidan Pb (II) ionini immobililangan arsenazo III bilan aniqlash natijalari (P=0,95 n=5)

Tahlil qilinayotgan aralashmaning tarkibi, mkg	Topildi Me, mkg (P=0,95; n=5)		
	$\bar{x} \pm \Delta X$	S	S _r
Pb(1,0)+ Cr(2,0)+Cu(1,0)	1,05±0,14	0,12	0,114
Pb(1,0)+ Ni(2,0)+Cd(4,0)	0,98±0,08	0,10	0,102
Pb(2,0)+ Fe(1,0)+Zn(15)	1,98±0,11	0,09	0,046
Pb(1,0)+ Cr(1,0)+Cd(13,0)+Cu(10,0)	0,98±0,12	0,11	0,112
Pb(3,0)+ Mn(5,0)+Fe(15,0)+Mn(10,0)	2,96±0,15	0,25	0,084
Pb(0,5)+Ca(3,0)+Mg(2,0)+Cu(10,0)+Fe(30,0)	0,52±0,09	0,06	0,115

7-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qo'rg'oshin (II) ni uchlamchi va undan murakkabroq aralashmalarda sorbsion-spektrometrik aniqlash mumkin va nisbiy standart chetlanish barcha holatlarda 0,115 dan oshmaydi, bu nisbatan yaxshi aniqlikdan dalolat beradi va ishlab chiqilgan usulning qayta takrorlanuvchan. Tabiiy obyektlar tarkibidan Pb (II) va Bi(III) ionlarini bo'lganda aniqlash uchun analiz qilinadigan obyektga uning standart eritmasidan qo'shiladi va nur qaytarish spektrofotometrda qayd etiladi. Tahlil natijalari 8,9-jadvallarda keltirilgan.

8- jadval
Qashqadaryo suvidan Pb (II) ionini
ishlab chiqilgan sorbsion-
spektrofotometrik aniqlash natijalari
(n=4; P=0,95)

№	Kiritildi Pb ²⁺ , mkg/ml	Topildi Pb ²⁺ , mkg/ml ($\bar{x} \pm \Delta X$)	S	S _r
1	0	0,021±0,03	0,081	0,086
2	1,0	1,044±0,081	0,06	0,052
3	2,0	2,019±0,097	0,093	0,098

9-jadval
Qizil daryodan (Yakka bog') Bi
(III) ionini ishlab chiqilgan
sorbsion-spektrofotometrik
aniqlash natijalari (n=5; P=0,95)

№	Qo'shildi Bi ³⁺ , mkg/25ml	Topildi Bi ³⁺ , mkg/ml \bar{x} ($\pm \Delta X$)	S	S _r
1	20,0	20,25±0,12	0,09	0,120
2	20,0	20,44±0,16	0,10	0,165
3	20,0	20,51±0,09	0,07	0,095

8-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki turli tabiiy suvlar tarkibidan Pb²⁺ ionini aniqlashda ishlab chiqilgan sorbsion-spektrofotometrik usulni qo'llash mumkin. Bunda S_r qiymat 0,098 dan oshmaydi bu esa ishlab chiqilgan usulni ishonchliligidan dalolat beradi. Ma'lumki, tabiiy va oqava suvlarda vismutning miqdori oz bo'lgani uchun, vismut birikmalarining kimyoviy xossalarini turli-tumanligi, uni aniqlashga halaqit beradigan komponentlarning ko'pligi tufayli ijobiy natijalar olish qiyin. Sorbsion spektroskopik usul yordamida konsentrlash va ajratmasdan metall ionini aniqlash imkoniyatini beradi.

9-jadval natijalaridan ko'rinadiki, ishlab chiqilgan sorbsion-spektrofotometrik usulda Bi (III) ionini aniqlashga qo'llanilganda S_r qiymatlari 0,165 dan oshmaganligi usulni ishonchli ekanligini bildiradi. Vismut birikmalarini farmaseftika sohasida keng qo'llanilganligi uchun ishlab chiqilgan usulni turli dori preparatlari analiziga qo'llab ko'rildi (10-jadval). Ishlab chiqilgan sorbsion-spektrofotometrik usul dori vositalaridagi vismutni 0,005 xatolik bilan aniqlashi mumkin.

10-jadval
Dori tarkibidagi Bi (III) ionini ishlab chiqilgan sorbsion-spektrofotometrik
aniqlash natijalari (n=5; P=0,95)

Dori nomi	Vismut (III) kiritilgan, mkg	R	Topilgan vismut(III), mkg	n	S	S _r
De-nol	50,00	0,350	50,50	5	0,012	0,004
De-nol	20,00	0,148	20,26	4	0,009	0,005

Taklif qilingan sorbsion-spektrofotometrik usulida Pb (II) va Bi(III) ionlarini aniqlashning raqobatbardoshligini baholash uchun, shuningdek olingan natijalarning ishonchliligini aniqlash maqsadida boshqa muqobil usullarning ba'zi bir metrologik va analitik parametrlari solishtirildi (11-jadval).

11-jadval
Turli xil tahlil natijasida olingan qiyosiy natijalar ishlab chiqilgan va
nazorat qilish usullari misolida (n=5; P=95)

№ namunalar	Ishlab chiqilgan usul		IV*		AA**	
	$\bar{x} \pm \Delta X$	S _r	$\bar{x} \pm \Delta X$	S _r	$\bar{x} \pm \Delta X$	S _r
1	3,68±0,37	0,096	3,71±0,14	0,093	3,58±0,13	0,016
2	4,07±0,13	0,080	4,02±0,18	0,086	4,03±0,15	0,072
3	7,34±0,41	0,053	7,21±0,13	0,023	7,45±0,19	0,012

*- inversion voltamperometriya ** - atom-absorbsion

12-jadval

Turli xil tahlillar natijasida olingan qiyosiy natijalar ishlab chiqilgan suvlarning tabiati va nazorat qilish usullari (n=5; P=95)

№	Ishlab chiqilgan usul		SF*		IV**	
	$\bar{x} \pm \Delta X$	S _r	$\bar{x} \pm \Delta X$	S _r	$\bar{x} \pm \Delta X$	S _r
1	4,05 ± 0,18	0,031	4,03 ± 0,18	0,033	4,16 ± 0,24	0,041
2	4,99 ± 0,19	0,027	5,09 ± 0,23	0,032	5,13 ± 0,18	0,026
3	6,23 ± 0,21	0,025	6,16 ± 0,24	0,028	6,16 ± 0,30	0,035

*- spektrofotometriya ** - inversion voltamperometriya

Shunday qilib, 11-12-jadvaldagi keltirilgan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, Pb (II) va Bi (III) ionini immobillangan arsenazo III va ksilenol zarg‘aldog‘i yordamida aniqlashning ishlab chiqilgan sorbsion-spektrofotometrik usulining metrologik xarakteristikalari (to‘g‘riligi, qayta takrorlanuvchanligi, tanlovchanligi) bo‘yicha shu metallarni aniqlashda qo‘llaniladigan usullardan qolishmaydi, olingan tahlil natijalari ishonchliligi farqlanadi, bu esa ishlab chiqilgan sorbsion-spektrofotometrik usulning raqobatbardoshligini ko‘rsatadi va ishlab chiqilgan texnik va real ob‘ektlarni tahlil qilishda qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA

1. Pb (II) ionini aniqlashda arsenazo III, Bi (III) ionini aniqlashda esa ksilenol zarg‘aldog‘i tanlab tasir etuvchan analitik reagent sifatida tavsiya etildi. Tanlangan organik reagentlarni immobillashda qattiq matritsa sifatida PPM-1 tolasimon sorbent taklif qilindi.

2. Arsenazo III va ksilenol zarg‘aldog‘ining PPM-1 tolasiga immobillanish sharoitlari (konsentratsiyaga bog‘liqligi, immobillanish vaqti) hamda immobillangan reagentlar bilan Pb (II), Bi (III) ionlarini kompleks hosil qilishining maqbul sharoitlari (Pb (II) uchun pH=5.5, Bi (III) uchun pH=2.25, vaqt bo‘yicha barqarorligi) aniqlandi.

3. Pb (II) va Bi (III) ionlarini immobillangan organik reagentlar bilan kompleks hosil qilish mexanizmini va tarkibini kvant-kimyoviy hisoblash, IQ, Roman spektrometrik, rentgeno-fluoretsent va SEM tahlili yordamida aniqlandi.

4. Pb (II) va Bi (III) ionlarini sorbsion-spektrofotometrik aniqlashning Buger-Lambert-Ber qonuniga bo‘ysunishi Pb (II) ion uchun 6-49 mkg/25 ml, Bi (III) ion uchun 3-42 mkg/25 ml oralig‘ida, olingan natijalarni aniqligi korrelyatsiya koeffisienti Pb (II) ion uchun 0,9922 va Bi (III) ion uchun 0,9939 ga tengligi bilan izohlandi.

5. Pb (II) va Bi (III) ionlarini aniqlashning ishlab chiqilgan sorbsion-spektrofotometrik usuli turli xil tabiatli model binar, uchlamchi va yanada murakkab aralashmalar, shuningdek Qashqadaryo viloyatining tabiiy suvlarining namunalari analizida qo‘llanildi va tahlil natijalari atom-absorbsion hamda boshqa usullar bilan solishtirilgan holda isbotlandi.

6. Pb (II) ionini arsenazo III va Bi (III) ionini ksilenol zarg‘aldog‘i bilan aniqlashning sorbsion-spektrofotometrik usuli “Shurtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi” va “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” ning markaziy laboratoriyalarida sinovdan o‘tkazildi hamda analitik laboratoriyaga tadbiiq etish uchun tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 30/03.04.2022.К.78.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМИЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

НОРМАТОВ БЕКТОШ РАМАЗОН УГЛИ

**СОРБЦИОННО-СПЕКТРОСКОПИЧЕСКОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ
ИОНОВ СВИНЦА И ВИСМУТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ
ИММОБИЛИЗИРОВАННЫХ РЕАГЕНТОВ
(на примере природных объектов Кашкадарьинской области)**

02.00.02 – Аналитическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Вы аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан, номером В2024.2.PhD/К756.

Диссертация выполнена Карвинского государственного университета Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещен на веб-странице по адресу (www.termu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZIVONET» по адресу www.zivonet.uz.

Научный руководитель: Сманова Зулайхо Асаналиевна
Доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: Султонов Марат Мирзаевич
Доктор химических наук, профессор
Умирова Гулнора Абдурахмоновна
Доктор философии по химическим наукам

Ведущая организация: Ташкентский фармацевтический институт

Защита диссертации состоится «04» 04 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD 30/03.04.2022.К.78.05 при Термизском государственном университете (адрес: 190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол Авлод 43. Тел.: (99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@gmail.uz).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Термизском государственном университете за № 289 с диссертацией можно ознакомиться в ИРЦ (190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол Авлод 43. Тел.: (99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@gmail.uz).

Автореферат диссертации разослан «18» 03 2025 г.
(реестр протокола рассылки № 4 от «18» 03 2025 г.)




З.З. Яшнева
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.х.н., проф.

Ю.А. Гелдиев
Ученый секретар, научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.х.н.


Н.С. Абдурахмонов
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.х.н., доц.

Актуальность и необходимость темы диссертации. В настоящее время развитие промышленности и увеличение количества транспортных средств приводят к загрязнению окружающей среды тяжелыми и токсичными металлами, что приводит к развитию различных серьезных заболеваний у человека и живых организмов. Чтобы устранить и предотвратить эти проблемы, необходимо контролировать содержание ионов тяжелых и токсичных металлов в природных объектах. Определение следовых количеств этих металлов доступными методами вызывает определенные трудности, поскольку состав объектов окружающей среды сложен, большое количество мешающих ионов, высокая стоимость оборудования и других различных факторов, поэтому особенно важно разработать высокочувствительные, дешевые, селективные аналитические методы для определения очень низких концентраций ионов этих металлов с использованием существующих методов.

В мире проводятся широкомасштабные научные исследования по совершенствованию методов определения тяжелых металлов в различных объектах окружающей среды, включая воду и почву. В этом контексте важно использовать селективные органические реагенты для определения ионов свинца и висмута в различных объектах окружающей среды, улучшить существующие спектроскопические методы, разрабатывать новые сорбционно-спектроскопические методы на основе комплексообразующих органических реагентов, а также применять их для определения и контроля концентраций токсичных металлов в составах природных объектов и проводить их мониторинг.

